

ISPANLI-CHANIR KO‘TARILMASINING TEKTONIKASI VA NEFTGAZLILIGI

Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Buxoro-Xiva regionida yangi neft va gaz konlarini ochish imkoniyati keng bo‘lib, asosiy izlov obektlari Chordjou pog‘anasining markaziy va janubiy-sharqiy qisimlarida tarqalgan. Izlov-razvedka ishlarida tadqiqot ishlarining masofaviy metodlarini keng qo‘lanilish o‘rganiladigan regionni yaxlit va alohida uchastkalari bo‘yicha geologiyasini o‘rganishni yangi xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Amudaryo botiqligi, Ispanli-Chandir, Divalkak, Matonat, Qushob egekligi, Yuqori yura.

Amudaryo botiqligining shimoliy-sharqiy qisimida poydevorining pog‘anasimonligi bilan xarakterlanadigan shimoliy-sharqdan janubiy-g‘arbga tomon Buxoro, Chordjou, Bagadjin pog‘analari ajraladi, bu tektonik elementlar bir-biridan regional uzilmalar orqali ajralib turadi. Burg‘ulash ishlari ma’lumotlari va geofizik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha bu pog‘analarda paleozoy fundamenti ko‘tarilmasi bilan tavsiflanadigan yirik elementlar ajratilgan bo‘lib, bular egekliliklar orqali bog‘langan, bunday ko‘tarilmalardan biri Ispanli-Chandir ko‘tarilmasidir.

Ko‘riladigan maydonning tuzilmali yuzasi ma’lumotlari bo‘yicha Qushob egekligi tomon janubiy – sharq tomon botib borgan Ispali – Chandir ko‘tarilmasining janubiy qanotini tashkil qilgan monoklinalga joylashgan. 15 m balandlikdagi katta bo‘lmagan monoklinal ko‘rinishdagi Divalkak maydoni umumiy monoklinal botig‘ining tarkibi bo‘lib, subkenglik hududagi chuqur bo‘lmagan tor egeklidagi Kokchin tuzilmaliy burin bilan shimoldan ajralib turadi.

Tuz osti tuzilmaliy rejasi ham monoklinal ko‘rinishga mansub, bo‘lib, yuqori yura yuzasi gipsometriyasi gumbazlar o‘lchami bo‘yicha tuzilmali burun hosil bo‘lish bo‘yicha differensirlangan va erta kimeridj vaqtida hosil bo‘lgan tektonik harakatlar hisobiga hosil bo‘lgan egekliklar orqali ajralib turadi. Shuningdek boshlang‘ich ko‘tarilishi ochiq dengiz havzasi yuzasidan 150-180 m bo‘lgan baryerli rif grebeni hosilalari hisobiga egekliklar hosil bo‘lgan.

Gumbaz nisbiy qarama-qarshi holda Divalkak konidan sharqda joylashgan bo‘lib, rif massivi greben chetlariga to‘g‘ri keladi, biri Divalkak №9 quduq joylashgan rayondi boshqasi Matonat maydoni №№ 2,3 quduq joylashgan rayonda.

Yana ikkita gumbaz Divalkak maydoni g‘arbida tuzilmaliy burinni murakkablashtiradi bu gumbazlar Divalkak maydoni №№ 4,8 quduqlar joylashgan rayonda.

Matonat maydoni №№2,3 quduqlar rayonidagi gumbazlar o‘lchami yuqori yura karbonat yotqiziqlari krovli bo‘yicha 3,4 x 1,0 km, balandligi 11 m.ni tashkil qiladi.

Yuqori yura ohaktoshlari yuzasi tuzilmali rejasi quyi yura- quyi kellovoy terregen yotqiziqlari bilan unchalik katta bo‘lmagan qarama-qarshilikda davom etgan.

Lokal struktura elementlarni ajratish Divalkak koni va Matonat maydonlarida zaxirani hisoblash bosqichida bajarilgan sesmorazvedka tadqiqotlarining UCHN materiallarining tahlil qilish natijalariga asoslangan. Matonat maydonida №№ 1, 2, 3 quduqlar joylashgan rayonda gumbazlar o‘lchami yura terregen yotqiziqlari ustki yuzasi bo‘yicha 3,0 x 2,8 km, balandligi 8 m. ni tashkil qiladi.

Shoda va Marjon maydonlari mavjud tektonik sxemaga muvofiq Ispanli-Chanir ko‘tarilmasini janubiy-sharqiy tugallangan joyiga joylashgan bo‘lib, bu ko‘tarilma Chorjou tektonik pog‘anasining yirik elementiga kiradi. Marjon maydoni joylashgan rayondan janubda Ispanli-Chandir ko‘tarilmasi bilan Dengizko‘l ko‘tarilmasini bo‘lib turuvchi egeklik o‘tgan.

Paleogen Buxoro sloyi bo‘yicha Marjon va Shoda maydonlari monoklinalda joylashgan bo‘lib, janubda yuqorida qayd qilingan egeklik tomon, shimolda Darboza

lokal burmahanligi tomon cho‘zilgan. Shimolda Buxoro fleksura-uzilmali zonaga borib taqaladi.

Tuzusti kompleksining chuqur gorizontlari bo‘yicha (XIII gorizont ustki yuzasi, kimeridj-titon yotqiziqlari ustki yuzasi) janubiy yo‘nalishda sesmarazvedka ma‘lumotlari bo‘yicha, o‘lchami va amplitudasi bo‘yicha ikkita kichik burmaga bo‘linadi: bittasi – Marjon va Djebe maydonlari oralig‘ida; boshqasi Shoda maydonining shimoliy-sharqiy qisimidan o‘rin olgan.

Tuz osti tuzilmali rejasi kimeridj-titon quyi angidrit ustki yuzasi va yuqori yura karbonat qavati ustki yuzasi bo‘yicha tuzilmaliy xaritalarda yoritib berilgan. Tuz ostiyotqiziqlari birmuncha murakkabligi bilan farqlanadi, asosan dislokatsiya va uzilmali buziqliklar bilan murakkablashgan. Karbonat qavatining ustki yuzasi rif tuzilmalarining rivajlanishi bilan qo‘shimcha murakkablashgan bo‘lib qavatning yuqori qisimi rif tuzilmasi ichki sklonida izogipslar keskin qisilgan.

1986 yil S.N.Zuyev tomonidan Shimoliy va Markaziy Pomuq, Marjon, Shoda, Djebe va Arniyoz maydonlarini o‘z ichiga olgan yirik rif massivi ajratilgan. Keyingi yillarda djebin nomidagi bu rif massivining tuzilishi S.N.Zuyev tomonidan aniqlik kritilgan va taklif qilingan modelga muvofiq bu janubdan shimolga cho‘zilgan bo‘lib, Arniyoz, Markaziy va Shimoliy Pomuq, Yangi Pomuq Djebe, Marjon, Shoda Darboza maydonlarini o‘z ichiga oladi, va shu yerda Buxoro feleksura uzilmali zonasi bilan birlashadi va barerli rifga kiradi, shunig uchun Janubiy-G‘arbiy O‘zbekiston yuqori yura bererli rif sistemasi qisimi deyiladi.

Marjon va Darboza maydonlari oralig‘ida Buxoro fleksura-uzilmasi o‘tadi. Marjon bloki Darboza blokiga nisbatan tuz osti yotqiziqlari bo‘yicha 60-80 metrga cho‘kkan.

Tuz usti kompleksi bo‘yicha uzilmaliy buzilishlar kuzatilmaydi. Har qanday holatda ham marjon blokidagi tektonik buziqliklar karbonat saqlagichlar uchun tektonik ekran hisoblanmaydi.

Sesmik materiallarni qayta interpretatsiya qilish natijasida yana uchta kichik amplitudali uzilmali buzilishlar aniqlangan bo‘lib, bu tektonik uzilmalar tasiflanadigan zonaning yuqori qisimida hosil bo‘lgan. Bu barcha uzilmalar kimeridj-

titon tuz-angidrit yotqiziqlarining to‘planish davrida rivojlangan. Bu uzilmalardan ikkitasi baholanadigan maydon hududiga joylashgan (Marjon maydonidan g‘arbda va Shoda maydonidan sharqda) va bittasi (oraliq) bir tomoni Shoda maydoni va ikkinchi tomondan Marjon va Djebe maydonlari oralig‘idan o‘tgan.

Shuni takidlab o‘tish keraki mahsuldor saqlagichni plikativ shakil ham, uzilmaliy buzilishlar ham Marjon maydoni va Marjon maydoni yaqinida joylashgan Djebe konida aniqlangan uyumlarni izolatsiyasini ta‘minlamaydi. Barcha uchta maydon zamonaviy tuzilmali rejada yagona ko‘tarilmaga birlashadi, bu ko‘tarilma kichik amplitudali lokal gumbazlar bilan murakkablashgan va uzilmali buzilishlar bilan ekranlashmagan. Shoda maydonida tutqichning amplitudasi 40 metrdan oshmaydi, Marjon maydonida 25 m va Djebe maydonida 15 metrdan oshmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абидов А.А. Нефтегазоносность литосферных плит. Т., «Фан», 1984, 125 2. Abidov A.A., Ergashev Y., Qodirov M.H. va b. Neft va gaz sanoati. Ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya., T., 2004, 558 б.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.1, T., 1981, 632 б.
4. А.р.ходжаев, А.М.Акромходжаев ва б. Нефтяные и газовые месторождения Узбекистана. Ташкент-1974
5. Бабаев А.Г. Геотектоническая история Западного Узбекистана и региональные закономерности размещения скоплений нефти и газа. Л., Недра, 1966г.
6. Материалы Республиканская научно-практическая конференция “Современный прогноз углеводородного потенциала недр и прогрессивные технологии поисково-разведочных работ на нефть и газ” (2016 й.)